




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

2024- YIL

*(dastlabki ma’lumotlar)*


## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM) dinamikasi<sup>1</sup>



■ YAIM hajmi, mlrd so'm    ○ YAIM o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da

2024- yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YAIMi hajmi joriy narxlarda **1 454 573,9** mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda **6,5 %** ga o'sdi. YAIM deflyator indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan **113,3 %** ni tashkil etdi.

### YAIMning deflyator indeksi dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan % da




✓ **YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMiga nisbati orqali hisoblanadi.

✓ **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

<sup>1</sup>Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2024- yillar uchun norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan.

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM dinamikasi,

joriy narxlarda, trln so'm



## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM dinamikasi,

mlrd AQSH dollari




**Ma'lumot uchun:** 2024- yilda AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi 12 652,7 so'm, 2023- yilda 11 737,2 so'm, 2022- yilda 11 051,2 so'm, 2021- yilda 10 610,0 so'm, 2020- yilda 10 055,8 so'mga teng bo'lgan.

Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YAIM hajmi 114 962,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

2024- yilda YAIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i **0,6 f.p.**, sanoat tarmog'i – **1,7 f.p.**, qurilish tarmog'i – **0,6 f.p.** va xizmat ko'rsatish tarmog'i – **3,3 f.p.** ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAIM **0,3 f.p.** ga ko'paydi.

### YAIM o'sishida tarmoqlarning hissasi dinamikasi,

jamiga nisbatan % da




Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **95,3 %** ini tashkil etdi va **6,6 %** ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri **6,2** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda **6,0 %** ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri – **0,3 f.p.**).

2024- yil yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. 2023- yilga nisbatan YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi **46,2 %** dan **47,4 %** ga, sanoatning ulushi **25,3 %** dan **26,4 %** ga oshdi.

Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **21,2 %** dan **19,2 %** ga hamda qurilish tarmog'ining ulushi **7,3 %** dan **7,0 %** ga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi, jamiga nisbatan % da




## Aholi jon boshiga YAIM, joriy narxlarda, ming so'm



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2020- yilda **34 232,1** ming kishi, 2021-yilda **34 915,1** ming kishi, 2022- yilda **35 648,1** ming kishi, 2023-yilda **36 412,4** ming kishi va 2024- yilda **37 171,5** ming kishini tashkil etgan.

2024- yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda **39 131,4** ming so'mni (yoki **3 092,7** AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.


## Aholi jon boshiga YAIMning o'sish (kamayish) sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da



Yuqorida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turganidek, 2024- yilda aholi jon boshiga YAIM hajmining real o'sishi 2023-yilga nisbatan **4,4 %** ni, 2020- yilga nisbatan esa **19,5 %** ni tashkil etdi.

✓ **Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.**

## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati




2024- yil yakunlariga ko'ra, **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida** 3,1 % (2023- yilda – 4,1 %, 2022- yilda – 3,6 %, 2021- yilda – 4,0 %, 2020- yilda – 2,9 %) darajasida ijobiy o'sish qayd etildi.

✓ **Ma'lumot uchun:** 2024- yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **467 041,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining **96,6 %** i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, **2,5 %** i – o'rmon xo'jaligi, **0,9 %** i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil yakunlariga ko'ra, ushbu tarmoqdagi ijobiy o'sish sur'atlari dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning **3,1 %** ga va o'rmon xo'jaligi – **3,0 %** ga o'sishi bilan bog'liq.

## Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




■ Hajmi, mlrd so'm    ○ O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da

2024- yil yakunlariga ko'ra, **sanoat tarmog'i** qo'shilgan qiymatida **6,8 %** ga o'sish kuzatilgan.


Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati **1,9 %** ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **7,7 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining **5,4 %** ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ining **5,6 %** ga ijobiy o'sishi hisobiga ta'minlandi.



### Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



Yillar



- O'sish (kamayish) sur'ati, % da
- Hajmi, mlrd so'm
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat
- Sanoatning boshqa tarmoqlari


### Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da

*jamiga nisbatan % da*


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat

Sanoatning boshqa tarmoqlari



## Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



■ Hajmi, mlrd so'm    —○— O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da

2024-yilda 2023-yil bilan taqqoslaganda **qurilish ishlari** hajmi **8,8 %** ga o'sdi.


Jumladan, o'sish sur'atlari bino va inshootlar qurilishida **105,5 %** ni, fuqarolik obyektlari qurilishida **124,7 %** ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida **106,4 %** ni tashkil etdi.

☑ **Ma'lumot uchun:** 2024-yilda qurilish ishlari hajmi **233 832,9 mlrd so'mni** tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi **23,6 %**, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi **46,2 %**, jismoniy shaxslarning ulushi **30,2 %** ni tashkil etdi.


**Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi,**

*mlrd so'm*


**Yillar Binolar va inshootlar qurish**



**Yillar Fuqarolik obyektlarini qurish**




**Yillar Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**




**Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi,**

*jamiga nisbatan % da*



- Binolar va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

### Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati




■ Hajmi, mlrd so‘m    ○ O‘sish (kamayish) sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan % da

2024- yil yakunlariga ko‘ra, **xizmatlar sohasining** yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi **657 348,5** mlrd so‘mni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **7,7 %** ga o‘tdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **11,5 %** ga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **10,7 %** ga, tashish va saqlash xizmatlari **8,5 %** ga, axborot va aloqa xizmatlari **24,7 %** ga, boshqa xizmatlar **4,5 %** ga o‘tdi.


### Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi,

jamiga nisbatan % da




● Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar  
 ● Tashish va saqlash, axborot va aloqa  
 ● Boshqa xizmat tarmoqlari

## Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




2024- yilda **savdo** tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va **56,1** % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **30,9** % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi **13,0** % ni tashkil qildi.

## Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da




### Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




2024-yil yakunlariga ko'ra, **tashish va saqlash** tarmog'ining O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi **5,4 %** ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulushi avtomobil transportiga to'g'ri keldi va **55,7 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **13,4 %**, temir yo'l transportining ulushi **8,4 %**, yordamchi transport faoliyatining ulushi **14,9 %**, havo transportining ulushi **7,6 %** ni tashkil etdi.

### Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da




## Axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



■ Hajmi, mlrd so'm —○— O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da

2024- yilda **axborot va aloqa** tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida asosiy ulush aloqa xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i va boshqalarga) to'g'ri keldi va **35,0 %** ni tashkil etdi. Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning qolgan **65,0** foizi axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat, teleko'rsatuv va radio-eshittirish v.b.) hissasiga to'g'ri keldi.

## Axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da




● Aloqa xizmatlari  
● Boshqa xizmatlar


2024- yilda **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining **38,2 foizi** aloqa xizmatlari, **43,3 foizi** kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **9,6 foizi** ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, Web-portallar, **5,5 foizi** dasturiy ta’minotni chiqarish, qolgan **3,4 foizi** kompyuterlar va aloqa uskunalarni ta’mirlash xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

### AKT xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati



### 2024- yilda iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat




2024- yil yakunlari bo‘yicha **kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari** tomonidan **753 226,9 mlrd so‘m** miqdorida qo‘shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning **54,3 %** i yaratilgan. Shundan **33,9 %** i qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, **12,6 %** i sanoat, **10,1 %** i qurilish tarmoqlari va **43,4 %** i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keldi.


Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **95,8 %**, qurilishda **78,4 %**, xizmatlar sohasida **49,8 %** va sanoatda **25,9 %** ni tashkil etdi.



## 2024- yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot




Hajmi, mlrd so'm



2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **505 650,1** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **34,8** % ni tashkil etdi.

Shundan norasmiy iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **383 643,7** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **26,4** % ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi esa **122 006,5** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **8,4** % ni tashkil etdi.

## 2024- yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, jamiga nisbatan % da



2024- yilda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmining tarmoqlar bo'yicha tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **63,6** % ni, qurilish **41,3** % ni, xizmatlar sohasi **40,1** % ni va sanoat **8,9** % ni tashkil etgan.

- Kuzatilmaydigan iqtisodiyot** – doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari.
- Norasmiy iqtisodiyot** – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.
- Yashirin iqtisodiyot** – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat.